

**BO'LAJAK TARBIYACHILARDA SOG`LOM TURMUSH MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI**

**M.Zoirova**

A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha  
va boshlang'ich ta'lism yo'nalishida masaofaviy  
ta'lism kafedrasni o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lism to'g'risida"gi qonunida sog`lom avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim shart – sharoitlarini yaratish, "bo'lajak tarbiyachilarining yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun jismoniy shaxslar madaniy – estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarida darsdan tashqari ta'lism muassasalarini tashkil etish", shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida quyidagi ustuvor yo`nalishlar belgilab berilgan:

- o`quv – tarbiya jarayonining sog`lomlashtirishga qaratilgan amaliy harakatlarni tashkil etish, sog`lom turmush madaniyati me'yorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo`lgan sharoitlarni yaratish;
- ta'lism oluvchilarining tibbiy – gigienik madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport borasidagi faolliklarini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish yo`lida tashkiliy uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish.Mazkur yo`nalishlarning belgilab derilishi sog`lom avlodni voyaga etkazish muammosining davlat siyosati darajasiga ko`tarilganligining isbotidir.

Ushbu muammoning ijobiy echim topishida, oliy o`quv yurtlari talabalari sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishda quyidagi ob'ektiv va sub'ektiv shart – sharoitlarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega:

**A) sub'ektiv shart** – sharoitlar;

- jamiyatda sog`lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosining davlat siyosati darajasiga ko`tarilganligi;
- yoshlarda sog`lom turmush madaniyatini shakllantirish jarayoniga ijtimoiy jamoatchilikning jalg etilganligi;
- talabalar o`rtasida sog`lom turmush madaniyatini targ`ib etish ishiga mas'ul bo`lgan shaxslar – ota-onal, pedagog hamda jamoat tashkilotlari vakillarining bu borada muayyan bilimlarga ega ekanliklari;
- bo'lajak tarbiyachilarining sog`lom turmush madaniyati va uning mohiyati xususidagi bilimlarni o`zlashtirganligi;
- ularda sog`lom turmush madaniyati ko`nikmalarini hosil qilishga bo`lgan qiziqish va ichki intilishning mavjudligi;

- ommaviy axborot vositalari sahifalarida jamiyatda sog`lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosining keng ko`lamda izchil, shuningdek, samarali yoritib berilayotganligi va hokazolar;

**-B) ob'ektiv shart** – sharoitlar;

- jamiyatda sog`lom turmush madaniyatini qaror toptirishga oid mavzularda yaratilgan manbalar (ilmiy) ilmiy – ommabop, ommabop va metodik adabiyotlar, darslik, qo`llanma, tavsiyanoma hamda ko`rgazmali qurollarning mavjudligi;

- Bo'lajak tarbiyachilarida sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyat jarayonining axborot va texnik vositalar bilan etarli darajada ta'minlanganligi va hokazolar.

Oliy o`quv yurtlari talabalarida sog`lom turmush madaniyatini shakllantirish yuqorida qayd etib o`tilganidek, murakkab jarayondir. Sog`lom turmush madaniyati mazmunida ijtimoiy, tibbiy, psixologik va pedagogik jihatlarning bir butun, yaxlitlikda namoyon bo`lishi ana shu murakkablikni asoslovchi dalildir. Oliy o`quv yurtlari o`qituvchilari tomonidan bu borada olib boriladigan faoliyat bir tomonlama xususiyat kacb etishi shubhasiz. Shu bois, talabalar o`rtasida sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishga mas`ul, ayni vaqtida tibbiy, psixologik va pedagogik bilimlardan to`laqonli ravishda xabardor bo`lgan, kadrlarni mazkur jarayonga tayyorlash ehtiyoji yuzaga keladi. Hattoki, I.A.Karimov bиринчи chaqiriq Oliy Majlisining o`n to`rtinchı sessiyasidagi “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” nomli ma'rzasida ham bu haqda alohida to`xtalib shunday degan edi:”Biz oldimizga qanday vazifa qo`ymaylik, qanday muammoni echish zaruriyati tug`ilmasin, gap ohir – oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi”[4].

Bo'lajak tarbiyachilarining sog`lom turmush madaniyatini shakllantirish negizida pedagog xodimlarni salomatlikka doir ko`nikmalari bilan qurollantirishda, qator an'anaviy o`qitish usullari bilan birgalikda hozirgi kunda omma o`rtasida keng tarqalayotgan treninglarni o`tkazish asosida ularni talaba – yoshlarda sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishga pedagogik tayyorgarlikni oshirish kutilgan samarani berdi.

Darsdan tashqari ta'lim – tarbiya jarayonida oliy o`quv yurtlari talabalarida sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik hamda tashkiliy ishlар amalgа oshiriladi.

Unga ko`ra, pedagogik shart – sharoitlar mazmuni quyidagicha yoritiladi:

Metodlar: 1) og`zaki metod, uning mazmunini ifodalovchi quyidagi shakllarda o`z aksini topadi: ma'ruza, nazariy seminar; konferentsiya (atrof – muhit muhofazasi, inson salomatligi, shuningdek, shaxsning kamolotiga etishiga mas`ul bo`lgan mutaxassislarni jalg etgan holda); 2) ko`rgazmali metod mazmunini ifodalovchi shakllar – sog`lom turmush madaniyati mazmunini ifodalovchi slayd, buklet, plakat va boshqa didaktik materiallar to`plami; video – syujet (sport, yuqumli kasalliklar va ekologiya)lar va hokazolar. 3) amaliy metodlar mazmunini ifodalovchi shakllarda esa: audio va video trening mashg`ulotlari; rasmlar tanlovi, ta'lim – tarbiya jarayonida jismoniy mehnatning kichik elementlaridan mashqlar qilish; “Agar sog`lom turmush madaniyatini shakllantirishni murakkab deb bilsangiz, u holda o`ylab

ko`ring, nosog`lom turmush madaniyatini narhi qancha turadi?!” tamoyili asosida uyushtirilgan kecha va musobaqalar; uchrashuv (tibbiyot xodimlari, psixolog, pedagog, yoshlar ijtimoiy harakat vakllari, ijtimoiy tashkilotlarning a'zolari, mahalla fuqarolik kengashlari faollari, yong`in va yo`l harakati xavfsizligi bo`limlarining mutaxassislari va boshqalar ishtirokida); ekspeditsiya ekologik xavf unsurlari (ko`rinishlari) mavjud bo`lgan hududlarda bo`lish, ekologik o`zgarishlarning sodir bo`lish sabablari va oqibatlari haqida bo`lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlarini boyitish;

## **Vositalar**

jonli nutq; shaxsiy namuna ko`rsatish (ota – onalar, fan o`qituvchilari, tibbiyot xodimlari, mahalla faollari, etuk sportchilar, bolalar ijtimoiy tashkilotining etakchi va liderlari; badiiy adabiyotlar, ilmiy, ilmiy – ommabop va ommabop asarlari, o`quv manbalari (darslik, o`quv dasturi va qo`llanmalari); illyustrativ materiallar – rasm, buket, plakat, syujet, slayd va boshqalar; tabiiy xom - ashyolar (tuproq namunalari) ular ekologik xavf mohiyatini yoritish uchun xizmat qiladi, sport buyumlari, turli jihozlar va hokazolar; ommaviy axborot vositalari sahifalarida berilayotgan maqola, teleko`rsatuva va radio eshtirishlar statistik ma'lumotlar; texnik (kodoskop) va axborotli texnologiya (kompyuter) vositalari; masofadan turib o`qitiladigan darslar uchun o`quv materiallari va boshqalar.

Yuqoridagi ta'lif – tarbiyaning muayyan shakl, metod hamda vositalari yordamida Bo`lajak tarbiyachilarda sog`lom turmush madaniyatini shakllantirish quyidagi ishlarning amalga oshirilish lozimligini taqozo etadi:

- pedagogik kadrlarni tayyorligini oshirish; oila, institut, maxalla, ijtimoiy tashkilotlar sog`likni saqlash, yong`indan saqlash, huquqni himoya qilish organlari, yoshlar tashkiloti hamkorligini yuksaltirish;
- sog`lom turmush madaniyatining mazmuni va bilimlar majmui (o`quv va qo`shimcha to`ldiruvchi materiallar va b.)ni ishlab chiqish;
- sog`lom turmush madaniyati yuzasidan zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan o`quv qo`llanmalari va ko`rgazmali o`qitish vositalarini yaratish va talabalarni ta'minlash.

Mazkur harakat bo`lajak tarbiyachilarning o`qishga bo`lgan faolligini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, shaxsiy erkinligini ta'minlaydi. Bu esa o`z navbatida talabaning o`z nuqtai nazari, bilimlarini to`la namoyon etishga imkon beradi;

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori .

- 
2. Kushakova, G. (2021). 6-7 bolalarni oilada mактабга tayyorlash jarayonini takomillashtirishning metodik ahamiyati. Мактабгача таълим журнали, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3938>
  3. Kushakova, G. (2021). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik ishlarni tashkil etish . Мактабгача таълим журнали, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3509>
  4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
  5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)